

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASÍ
MINISTRLER KEÑESINIŃ
QARARI**

2023 - yil 5 - yanvar

10-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2022-yil 29-dekabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi sovutkichli
sig'imlar uyushmasini tashkil etgan holda intervensiya tizimini joriy
etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 729-sonli qarori haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-dekabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi sovutkichli sig'imlar uyushmasini tashkil etgan holda intervensiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 729-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-dekabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi sovutkichli sig'imlar uyushmasini tashkil etgan holda intervensiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 729-sonli qarori topshiriqlari ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori bilan quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy tumanlarida tadbirkorlikni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 30-maydagi PQ-264-son qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoliy tumanlarining iqlim sharoitidan kelib chiqib, qish-bahor oylarida aholining asosiy oziq-ovqat, xususan, kartoshka, piyoz mahsulotlariga bo'lgan talabini, oziq-ovqat xavfsizligini va bozorlarda narx-navo barqarorligini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi sovutkichli sig'imlar uyushmasini tashkil etgan holda intervensiya tizimini joriy etish belgilanganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda Uyushma faoliyatini yulga qo‘yish, uni samarali tashkil etish va faoliyat vazifalarini amalga oshirishda yaqindan ko‘maklashish topshirilganligi;

s) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Moliya vazirligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda bir oy muddatda Uyushmaga a’zo subyektlarga kooperatsiya tashkil etgan holda sovutkichli sig‘imlar qurish va jihozlash hamda qish va bahor oylarida elektr energiya xaratjatlarining bir qismini O‘zbekiston Respublikasining davlat budgetidan qoplab berish tartibini ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish belgilanganligi;

d) tumanlarda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga taqchillik sezilganda ichki bozorni to‘ldirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Uyushma bilan birgalikda ichki bozorni intervensiya qilish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan:

tumanlarda taqchillik ehtimoli aniqlangan asosiy turdag'i qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining zaxirasini yaratishi;

taqchillik ehtimoli kutilayotgan asosiy turdag'i qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishni moliyalashtirish maqsadida tuman (shahar) hokimliklarining Oziq-ovqat xavfsizligi jamg‘armalari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mablag‘lar jalb qilinishini ta’minalash;

taqchillik sezilgan hududlarda faoliyat yuritayotgan chakana savdo shaxobchalari, yirik savdo markazlari va dehqon bozorlari bilan hamkorlikda ularga asosiy turdag'i qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini tizimli yetkazib berish choralarini ko‘rish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Adliya vazirligi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sovutkichli sig‘imlar uyushmasini (keyingi o‘rinlarda - Uyushma) tashkil etish va asosiy faoliyat vazifalari etib Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy tumanlari aholisi iste’moli uchun qish-bahor oylarida asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga g‘amlash, saqlash, ichki bozorga yetkazib berish, bozorlarda narxlar barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash hamda intervensiya tizimini joriy etishni nazarda tutgan holda Uyushmaning ustavi va ta’sis hujjatlarini ishlab chiqish va o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda huquqiy kumaklashsin;

Uyushmani yuridik manzilga joylashtirish va boshqaruv apparatini malakali xodimlar bilan to‘ldirish masalalarida amaliy yordam ko‘rsatsin.

4. Uyushmaga Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy tumanlari aholisini asosiy turdagি oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini doimiy ravishda tahlil qilib borish, shuningdek, zaruratga ko‘ra, bu borada tezkor kompleks choralar ko‘rish bo‘yicha aniq hisob-kitoblarga asoslangan takliflarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga kiritib borish tavsiya etilsin.

5. Nukus shahri va tuman hokimliklari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy tumanlarida asosiy turdagи oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgansovutkichli sig‘imlar, shuningdek, dehqon bozorlariningsovutkichli sig‘imlarini manzilli ro‘yxatini shakllantirsin hamda doimiy ravishda yangilab borsin;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Uyushma bilan birgalikda bir oy muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy tumanlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash borasida birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash va ijroga qaratish, bunda asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlarining zaxiralarini yaratish nazarda tutilsin.

6. Qishloq xo‘jaligi vazirligi Moliya vazirligi va Nukus shahri hamda tuman hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda Uyushmaga a’zo subyektlarga kooperatsiya tashkil etgan holdasovutkichli sig‘imlar qurish va jihozlash hamda qish va bahor oylarida elektr energiya xarajatlarining bir qismini O‘zbekiston Respublikasining davlat budgetidan qoplab berish tartibini ishlab chiqib, o‘rnatalgan tartibda Vazirlar Kengashiga kiritish choralarini ko‘rsin.

7. Qishloq xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda AQSH Xalqaro savdo ma’muriyatining Amerika maxsus biznes amaliyoti o‘qitish dasturi (SABIT) haqida tadbirkorlik subyektlariga seminar-treninglar o‘tkazilishini hamda batafsil ma’lumot yetkazilishini ta’minalasin.

8. «Qoraqalpoq Dehqon bozorlari» birlashmasi Nukus shahri hamda tuman hokimliklari bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlariga qo‘layliklar yaratish maqsadida Uyushma tomonidan zaxira qilingan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ichki bozorni ixtiyoriy ravishda intervensiya qilish uchun ularga dehqon bozorlarida rastalar ajratilishini ta’minalasin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov